

Shaxs Muammosinintg O'rganilishi

Ashurova Gulruxon Oxunovna¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs muammosini o'rganish kabi mavzular yoritib beriladi. Shaxs muammosini o'rganishning psixologiya uchun xosligi, shaxsning shakllanish jarayoniga shaxslararo munosabatlardan tashqari jamiyatdagi mavjud siyosiy doiralar va mafkuraviy qarashlar ham katta ta'sir ko'rsatishi to'liqroq yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Yondashuv, shaxslararo munosabatlar, sotsial psixologiya, ijtimoiy-psixologik yondashuv, shaxs, ehtiyoj.

Ushbu maqolada shaxs psixologiyasi muammolari va ularning tahliliy nazariy asoslari yoritib berilgan. Unda shaxsning rivojlanish bosqichlari, o'ziga xosligi, shaxsning ijtimoiylashuvi va uning ustanovkalari, psixologiyada shaxs muammosini tushunish umumiy psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishga bog'liqligi keltirib o'tilgan. Shu sababdan ushbu kichik tadqiqot amaliy va umumiy psixologiya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar va pedagogika-psixologiya fakultetida tahsil olayotgan talabalar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Muloqot jarayonining ham, guruhij jarayonlarining ham egasi – sub'yekti hamda ob'yekti aslida, alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham Ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rgandiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan tekshiradi.

Ma'lumki, shaxs muammosi umumiy psixologiyada ham, pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni o'z mavzu va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo'lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiyada shaxsni psixologik faoliyatning mahsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblansa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning ob'yekti deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni Ijtimoiy psixologiya, avvalo, biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarni ishlab chiqish Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Inson shaxsining eng muhim tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik - bu shaxsning bir necha fazilatlarining qaytarilmaydigan birikmasidir. Uning tarkibiga xarakter (tabiat), temperament (mijoz) qobiliyatlar, hissiyotlar yig'indisi, odatlar kiradi. Odam turli guruhlarga kirar ekan, har xil vazifalarni bir-biriga o'xshamagan rollarni bajaradi. Ba'zi bolalar oilada erkato, injiq bo'lsa, maktabda tengdoshlari o'rtasida kamtarin, odobli, xushchaqchaq bo'ladi. Ishda juda jiddiy yuradigan odam biror sayohatga borganda hazilkash, qiziqchi bo'lib yurishi mumkin. Ko'pincha kishi turli vaziyatlarda o'xshash sifatlarni namoyon qiladi. Bizning jamiyatimizda shaxsga beriladigan tavsifnoma uning rivojlangan jamiyat qurish jarayoniga bo'lgan munosabati va bu jarayonda real qatnashishi bilan belgilanadi. Odamning psixik holatlarini o'zgarishi tashqi muhitga va ijtimoiy tarbiyaga bog'liqdir. Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchan xususiyatlari shaxs

¹ Qo'qon Universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi



xislatlarining bir butunligi va o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni dinamik tuzilishni hosil qiladi. Inson shaxsining individual (ontogenetik) taraqqiyoti butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenetik) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlashdir. Ular o'zlarining nazariyalarini bolalarning turli yosh davrlarida namoyon bo'ladigan faoliyat turlari orqali tushuntiradilar. Masalan: nemis psixologi V.Shternning fikricha, yangi tug'ilgan chaqaloq odam emas, balki sut emizuvchi hayvondir. U olti oylikka etganda maymunlar darajasiga etadi, ikki yosh bo'lganda maymunning odamga aylanish davrini eslatadi. 5 yoshda ibtidoiy poda bo'lib yashagan qadimgi odamlar darajasiga etadi. 1 - sinfga borganda ibtidoiy jamoatchilik davrini eslatadi. Kichik maktab yoshida esa o'rta asrlar davrini eslatadi. Shaxs psixologiyasining shakllanishiga u mansub bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy guruhlarning munosabatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday o'zaro ta'sir va muloqot jarayonida shaxslarning bir-biriga ta'siri sodir bo'lishi bilan birgalikda, jamiyatga, mehnatga, odamlarga, o'zining shaxsiy sifatlariga nisbatan o'z qarashlariga, ijtimoiy ustanovkalariga ta'sir o'tkazishi sodir bo'ladi. Ma'lum bir ijtimoiy muhitda yashar ekan, shaxs u yerda o'ziga xos o'ringa, obro'ga, rolga ega bo'ladi. Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasi sohasida shaxsni o'rganish ustida olib borilayotgan tadqiqotlar masalasi, ayniqsa bu boradagi amaliy vazifalar ijtimoiy psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'nalishlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida shaxsni o'rganishga nisbatan ikki xil ijtimoiy psixologiya - «Psixologik ijtimoiy psixologiya» va «Sotsiologik ijtimoiy psixologiya» mavjud. Bu yo'nalishlar bir-biriga o'xshasada, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruhiv kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish, xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruhlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urg'u beriladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tushuntirish va ko'rsatish maqsadida bu sohada ish olib borayotgan barcha olimlar o'z qarashlarini o'ziga xos tarzda ifodalay olgan. Shulardan biri D.Mayers ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tahlil qilish uchun barchaga ma'lum bo'lgan bir ertakdan foydalanadi. Bu ertak yoqimtoy Zolushka haqidagi ertak bo'lib, unda quyidagicha mazmun aks ettiriladi: Taqdir taqozosi bilan Zolushka shahzoda uyushtirgan katta bal (qadimda boy xonadonlar tomonidan maxsus uyushtiriladigan raqs kechasi) ga tushib qoladi va shahzodaning e'tiboriga sazovor bo'ladi. Zolushkani qattiq sevib qolgan shahzoda uni izlab kelib, o'gay onaning xonadonida ko'rganida avvaliga tanimaydi. Nega? Bu ertak shaxs va uning atrofidagi muhit munosabatlarini tushunib olish uchun juda sodda misoldir. Zolushka shahzoda huzuridagi balda go'zal, xushchaqchaq, jozibali ko'ringan bo'lsa, o'gay ona huzurida butunlay boshqacha ko'rinadi va o'zini boshqacha tutadi. Balda u o'ziga nisbatan ijobiy munosabatlar doirasida o'zini go'zal va ajoyib qiz ekanligiga ishonib aloqaga kirishgan bo'lsa, o'gay onasining uyida unga nisbatan salbiy munosabatlar ta'sirida o'ziga nisbatan past baho berishi natijasida o'zini tortinchoq, kamgap tutadi. Fransuz filosofi Jan Pol Sartning ta'kidlashicha, Zolushka bilan sodir bo'lgan voqeada hech qanday hayratlanarli narsa yo'q, uning fikricha, biz odamlar «hamisha vaziyatlarga bog'liqmiz. Bizni vaziyatlardan ajratib bo'lmaydi, vaziyatlar shaxs sifatida bizni va bizning imkoniyatlarimizni shakllantiradi». Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1. Faoliyat sohasi, ya'ni umr mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda fan katalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarining, malaka va ko'nikmalarining, bilimlarning borligini talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;
2. Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy hislatlarni paydo qiladiki, uning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.
3. O'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni "MEN" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish



qobiliyatini anglash, so'ngra o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir. Shaxs sotsializatsiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bola tug'ilishi bilan boshlansa-da, sezilarli, samaradorlik nuqtai nazaridan uning bosqichlari farqlanadi. Masalan, birinchi bosqich - mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi sotsializatsiyaning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda, asosan, tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongda singdiriladi, mustaqil hayotga tayorgarlik borasida muhim bosqichga o'tiladi. Ikkinchi bosqich - mehnat faoliyati davri - bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faoliyatida, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning maxsulidir. Nihoyat, uchinchi bosqich - mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga, asosan, aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs sotsializatsiyasi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasida ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Shaxsning individuallik va identivlik xususiyatlarini talqin qilish. E'tibor berish kerakki, sinaluvchi ijtimoiy rollar (o'quvchi, talaba, farzand, qiz bola, yigit...) rasmiy biografik xarakteristikalaridan boshqa, o'ziga xosliklarni ham keltirganmi (masalan: lider, optimist, qobiliyatli inson...) yoki u oddiy ijtimoiy hayot mahsulimi. Aynan shu o'rinda, sinaluvchiga hech kimga o'xshamaydigan individualliklari (o'ziga xosliklari)ni javoblari orasidan ko'rib chiqish va yana qo'shimcha ravishda chuqurroq o'ylab ko'rish tavsiya etilishi kerak (bunga yana alohida 1 daqiqa vaqt berilishi ham mumkin). Sinaluvchining faqat ijtimoiy, rasmiy, biografik rollarini keltirgan bo'lishi, u insonning o'zida boshqa narsa ko'rmasligi, muammo va o'ylantiradigan masalalarni niqoblashi yoki ularni bir chetga surib qo'yganligi belgisidir. Shuningdek, har xil ko'rinishga ega lekin bitta mavzu (muammo yoki masala)ga taqaluvchi javoblarni topish orqali sinaluvchini muammosini topishga harakat qilishi kerak. Ahamiyat beriladigan jihat, yopishqoq fikrlar va diqqat dominantalari ham shu berilgan sinonimik xususiyat bilan qaytariluvchi ta'kidlarda yashiringan bo'lishi mumkin. Shaxs bir qator identivlik (mansublik) larga ega bo'lishi mumkin, jumladan: jinsiy, ijtimoiy, e'tiqodiy-ma'naviy, oilaviy, kasbiy, individual, jismoniy, o'quv-ta'lim sohasi kabi shaxs identivliklarini aytish mumkin. Sinaluvchi bergan javoblarni har birini u yoki bu shaxs identivligiga kiritish mumkin va ifodalanganligi bo'yicha ular quyidagicha darajalanadi. Bevosita kuchli ifodalangan shaxsiy identivliklar. Misol uchun: erkak, yigit, o'g'il bola, yoki, ayol, qiz bola bunday javoblar sinaluvchining jinsiy identivligini ko'rsatadi. Shunday bir yo'nalishdagi identivliklarning ko'pligi, sinaluvchining qadriyat darajasiga chiqqan identivligini ham ifoda etishi mumkin. Bilvosita (yashirin) ifodalangan shaxsiy identivliklar. Bunda muayyan identivlikning elementlarini javoblarda kuzatamiz, misol uchun bilvosita jinsiy identivlikning ifodalanganligi: o'quvchi qiz, odobli qiz, chiroyli qiz, yoki, yaxshi yigit, odobli bola, mehribon o'g'il. E'tibor qaratish lozimki, bilvosita ifodalangan identivliklarning ko'pligi (va bir vaqtning o'zida bevosita kuchli ifodalangan identivliklarning yo'qligi), o'sha identivlikning shaxs tomonidan chuqur anglanilmaganligi yoki siqib chiqarilganligidan darak beradi. Identivlikning ifodalanmaganligi. Identivlikning bilvosita va bevosita ifodalanganlik darajalari juda kam yoki umuman yo'qligi, shaxsda identivlik rivojlanmaganligi hamda identivlik qadriyat yo'nalishi shakllanmaganligi yoki chuqur siqib chiqarilganligidan dalolat beradi. Bunday hollarda sinaluvchiga dahldorlik va mansublik hissini oshirishga qaratilgan motivlar berilishi kerak. Ayniqsa, jinsiy, ijtimoiy, oilaviy shaxs identivliklarini shakllantirish va rivojlantirishga urg'u berish darkor. Insonda shaxs identivligi yo'qligi, begonalashuv va deviant xulq-atvorning vujudga kelishiga olib keladi, bu esa oldini olish lozim bo'lgan oqibatdir.





“Kalit” metodi

Bolajonlarga mavzuni yaxshi tushuntirish uchun kalit metodikasi ko'rib chiqamiz. Bu esa kalit metodikasi bolalarni yanada bilimga chanqoqligini oshiradi. Kalit metodikasining shartlari shundayki bu esa qulfga biron bir atama, termin yoki biron bir mavzu olinadi va kalitlarga esa shu atama, termin yoki mavzuga oid ma'lumotlar yozoladi. Shu ma'lumotlar ichida bir to'g'ri javob bo'ladi va shu to'g'ri bilan qulf ochiladi. Bu metodika boshlang'ich bolajonlarini bilimga qiziqtirishga va yanada bilimini oshirishga yordam beruvchi metoddir. Bu metodni qo'llashda esa pedagogik mahorat ham juda zarur bo'ladi. O'qituvchi bolajonlarni nutqi bilan, tabassumi bilan o'ziga jalb qila olishni bilishi kerak.



Ta'kidlash joizki, muayyan identivlikka xos bo'lgan javob variantlarining ko'pligi, shaxsning o'sha identivlikka mansublik darajasini va o'sha muayyan identivlik shaxs uchun muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa: Shaxs muommosini o'rganish degani odamni shaxs sifatida tevarak - atrofdagi kishilar va narsalar bilan bo'lgan aloqalari ularning ishlab chiqarish faoliyatlarida, odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Odam boshqa kishilar bilan bo'lgan munosabatlardagina shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Demak, shaxs kishilik jamiyatida yashaydigan, faoliyatni biror turi bilan shug'ullanadigan, til orqali atrofdagilar bilan normal muloqotda bo'la oladigan, ongi yuksak rivojlangan komil insondir. Odam turli guruhlariga kirar ekan, har xil vazifalarni bir - biriga o'xshamagan rollarni bajaradi. Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchan xususiyatlari shaxs xislatlarining bir butunligi va o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni dinamik tuzilishni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. –T.: «O'qituvchi», 1998.
2. G'oziev E. Psixologiya. T.: O'qituvchi, 1999.
3. N. Ismoilova, D. Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. 2013. Qisqacha psixologik lug'ati-Rostov-na-Donu: FENİKS. L.A. Karpenko, A.V. Petrovskiy, M.G. Yaroshevskiy. 1998.
4. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002. 1-2 kitob.
5. Ashurova, G. (2024). O'SMIRLIK YOSHIGACHA BO'LGAN BOLANING PSIXIK XUSUSIYATLARI RIVOJLANISH JARAYONI O'RGANISHNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 58-59.
6. Ashurova, G. (2024). TALABALAR O 'QUV FAOLIYATINI TASHKILLASHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 56-57.
7. Ashurova Gulru Ohunova. Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 5/2025 56 № 5-son, 1-qism 2025-yil “QALB, NAFS VA RUH TUSHUNCHALARI ISLOM PSIXOLOGİYASIDA”.

